

**“Kwangjin Autosystems” MChJning
2026-yil 19-martdagi
021-P-sonli buyrug‘iga
4-ilova**

**“KWANGJIN AUTOSYSTEMS”
MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATINING
BIZNES HAMKOR VA UCHINCHI TOMONLARNI
KOMPLEKS TEKSHIRISH
SIYOSATI**

Andijon 2026-yil

1. Umumiy qoidalar

“Kwangjin Autosystems” MChJ (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat)ning Biznes hamkor va uchinchi tomonlarni kompleks tekshirish siyosati (kengi matnda Siyosat deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, jumladan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunlari, qonunosti hujjatlari, “Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi to‘g‘risida”gi halqaro ISO 370001 standarti va ichki tartib-qoidalar asosida ishlab chiqilgan.

Jamiyat yuqori ahloqiy me‘yorlarga rioya qiluvchi va ularni qo‘llab-quvvatlovchi ishonchli biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan hamkorlik qilishga tayyor.

Jamiyat faqat ahloqiy hulq-atvorni namoyon etadigan va “Biznes hamkorlarning odob-axloq qoidalari”ning asosiy tamoyillariga amal qiladigan hamkorlar bilan faoliyat olib boradi.

Jamiyat nomidan va uning topshirig‘iga (talabiga) ko‘ra ish yuritadigan barcha hamkorlar ushbu siyosatlarga rioya qilishlari shart. Biznes hamkor va uchinchi tomonlar o‘zlarining odob-axloqlarini, jumladan, Komplayens tekshiruvi jarayonida hamkorlik qilish orqali namoyish etadilar.

1.1. Siyosatning maqsadi

Siyosatning maqsadi - Jamiyat biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan ishlashda qonunchilik, halqaro normalar, ichki tartib-qoidalar va boshqa olingan majburiyatlar talablarini ta‘minlash, korrupsiya, manfaatlar to‘qnashuvi, firibgarlik va moliyaviy yo‘qotishlar oldini olishga qaratilgan.

Xodimlar hamkorlar kimligi va ular biznesini qanday qilib yuritishini tushunishlari muhimdir. Biznes hamkor va uchinchi tomonlar korrupsiyaga qarshi, sanksiyalar va eksport nazoratiga oid milliy va xalqaro qonunchilik talablarini buzsa, Jamiyat ularning xatti-harakatlari natijasida qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi va natijada jiddiy moliyaviy, huquqiy va ob‘ro‘si bilan bog‘liq zarar ko‘rishi mumkin.

Ushbu holatlarning oldini olish uchun yangi yoki mavjud bo‘lgan hamkorlar bilan shartnoma tuzishda, ular ishonchlilik tekshiruvidan (due diligence) o‘tkazilishi kerak.

1.2. Siyosat qo‘llanish sohasi

Siyosat Jamiyat tomonidan biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan shartnomaviy munosabatlarni o‘rnatish va ular bilan ishlash jarayonida qo‘llaniladi.

Biznes hamkorlar va uchinchi tomonlar Siyosatda belgilangan talablarga rioya qilishlari shart.

Siyosat Jamiyatning barcha tuzilmaviy bo‘linmalarida, shu jumladan, Nazorat ostidagi korxonalarda qo‘llaniladi. Jamiyat nazorat paketiga yoki ulushiga ega bo‘lmagan qo‘shma korxonalar xodimlari, mansabdor shaxslari va direktorlari (menejerlari) ushbu Siyosat talablariga rioya qilishlari tavsiya etiladi.

ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Qo'llaniladigan qonunchilik - O'zbekiston Respublikasi hududida qabul qilingan va rasmiy tarzda kuchga kirgan qonunlar, kodekslar, qonunosti hujjatlari (farmonlar, qarorlar, tartiblar, yo'riqnomalar va boshqalar), xalqaro shartnomalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar majmuasidir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi, AQShning korrupsiyaga qarshi kurashish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi Qonun hujjatlari hamda AQSh, Buyuk Britaniya va Evroittifoq hukumatining sanksiyalar va eksport nazoratiga oid qonun hujjatlari hamda biznes hamkor va uchinchi tomoni ro'yxatdan o'tgan joyda yoki u joylashgan mamlakatda amal qiladigan korrupsiyaga qarshi qonunchilik ham nazarda tutiladi.

Nazorat ostidagi korxonalar - Jamiyat o'zining ovoz beruvchi aksiyalarining (ulushlarining) yigirma foizidan ko'prog'iga ega bo'lgan yoki korxonalar faoliyatini tashkil etish, biznes jarayonlari, moliyaviy va investisiya qarorlarini qabul qilishda bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxslar, qo'shma korxonalar va boshqa tashkilotlar hamda jamiyat filiallari.

Davlat organi – davlat fuqarolik xizmati tatbiq qilinadigan davlat organlari va tashkilotlari ro'yxatiga kiritilgan davlat hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan tashkiliy jihatdan alohida tuzilma.

Davlat fuqarolik xizmati lavozimi – davlat organining vakolatlarini amalga oshirish uchun Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestriga kiritilgan lavozim.

Davlat fuqarolik xizmatchisi – davlat fuqarolik xizmati lavozimida o'z faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi.

Davlat ishtirokidagi tashkilot – ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat tashkiloti yoxud to'liq yoki qisman davlat organi tomonidan tashkil etilgan yoki ta'sis etilgan notijorat tashkilot.

Siyosiy partiya – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasi.

Xalqaro tashkilot – siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy, huquqiy va boshqa sohalardagi hamkorlikni amalga oshirish maqsadida xalqaro shartnomaga asoslangan hamda xalqaro huquqqa muvofiq ravishda tuzilgan davlatlar birlashmasi.

Siyosiy ta'sirga ega shaxs – amaldagi yoki sobiq yuqori lavozimli amaldor, shu jumladan:

mahalliy davlat hokimiyati yoki o'zini o'zi boshqarish organlarining rahbari;

hukumat rahbari, vazir;

parlament deputati;

siyosiy partiyaning boshqaruv organi (kengashi) a'zosi;

Konstitusiyaviy sud, Oliy sud sudyasi yoki boshqa darajadagi sud organining sudyasi (sud organi a'zosi);

Markaziy bank kengashi yoki boshqaruvi a'zosi;

elchi (konsul);

inson huquqlari bo'yicha vakil yoki biznes-ombudsman;

Qurolli kuchlarning katta lavozimdagi ofiseri;

davlat ulushi bo'lgan kompaniya kengashi yoki boshqaruvi a'zosi;

xalqaro tashkilot rahbari.

Chetlatish muddati - bu siyosiy ta'sirga ega bo'lgan shaxs o'z davlat lavozimini tugatgandan keyin, ta'sirga ega hisoblanishda davom etadigan vaqt davri.

Davlat xizmatchilari (davlat boshliqlari, vazirlar, deputatlar va boshqa yuqori mansabdor shaxslar) xizmat muddati tugaganidan keyin 5 yil;

Sudyalar (sud tizimida yuqori lavozimlarni egallab turgan shaxslar) pensiyaga chiqqandan yoki vakolatlari tugaganidan keyin 3 yil;

Harbiylar (oliy unvonli zobitlar va qo'mondonlar) pensiyaga chiqqandan keyin 3 yil;

Davlat ishtirokidagi tashkilotlarining rahbarlari (davlat ishtiroki bo'lgan kompaniyalarni boshqaruvchi shaxslar) vakolat tugaganidan keyin 3 yil;

Xalqaro tashkilotlar boshqaruvi a'zolari (xalqaro yoki hukumatlararo tashkilotlarda muhim lavozimlarni egallab turgan shaxslar) vakolat muddati tugaganidan keyin 3 yil;

Ushbu shaxslarning yaqin qarindoshlari ta'sirga ega shaxs lavozimini to'xtatganidan keyin 1 yil.

Sanksiyalangan shaxslar va hududlar - xalqaro tashkilotlar yoki davlatlar tomonidan muayyan sabablarga ko'ra cheklov choralari (sanksiyalar) qo'llanilgan jismoniy yoki yuridik shaxslar va hududlardir.

Yaqin qarindoshlar - ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

Biznes hamkor/kontragent – Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlariga (mehnat munosabatlaridan tashqari) kirishadigan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs (Biznes hamkorni biznes hamkor va uchinchi tomon, etkazib beruvchi, distribyutor, diler yoki Jamiyat nomidan va uning manfaatlarini uchun harakat qilishga vakolatli boshqa uchinchi shaxsni misol keltirishi mumkin).

Uchinchi tomonlar – korxonaning bir qismi bo‘lmagan, lekin uning faoliyati bilan bevosita yoki bilvosita aloqador bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar.

Benefisiar egasi (yakuniy benefisiar) – biznes hamkor va uchinchi tomonning xususiy egasi bo‘lgan yoki ushbu Biznes hamkor va uchinchi tomon uchun majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish, qabul qilinayotgan qarorlarga ta’sir ko‘rsatish yoki boshqacha tarzda uning xarakterlarini bevosita yoki bilvosita nazorat qilish huquqi yoki imkoniyatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs;

Manfaatlar to‘qnashuvi — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

Xavf omillari («Red flags/ Qizil bayroqlar») – noqonuniy xatti-harakatlar, vijdotsiz xulq-atvor, poraxo‘rlik yoki korrupsiyaning paydo bo‘lish ehtimoli (mavjudligi) haqida ogohlantirishi mumkin bo‘lgan, shu boisdan har qanday harakatlarni amalga oshirishdan oldin qo‘shimcha tekshiruv o‘tkazishni talab qiladigan salbiy ma’lumotlar, ko‘rsatkichlar yoki holatlar.

Xodimning shaxsiy manfaatdorligi – Tashkilot xodimi, uning yaqin qarindoshi yoki xodim bilan bog‘langan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat vazifalarini tegishli tarzda bajarishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari) pul mablag‘lari, moddiy va nomoddiy qadriyatlar, boshqa mulk, foyda, imtiyoz va afzalliklar ko‘rinishidagi shaxsiy foyda olish.

Kompleks tekshiruv (Ishonchlilik/«Due Diligence» tekshiruvi) - Biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan amaliy hamkorlikning boshlanishi haqida qaror qabul qilishdan oldin ko‘rib chiqish va baholash jarayoni. Tekshiruvning asosiy maqsadi Biznes hamkor va uchinchi tomonlarning malakasi, obro‘si va ishbilarmonlik aloqalari, ayniqsa, Biznes hamkor va uchinchi tomonlarning Davlat xizmatchilari bilan aloqalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash va baholash orqali Biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan hamkorlikda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni aniqlashdan iborat.

Kompleks tekshiruv anketasi (Due Diligence Questionnaire yoki DDQ) - Biznes hamkor uchinchi tomon tarafidan to‘ldiriladigan va Xarid va ta’minot bo‘limi mutaxassislari tomonidan yig‘iladigan so‘rovnoma. Ushbu so‘rovnoma faqat tahlilni talab qiladigan Biznes hamkor va uchinchi tomonlar uchun tatbiq

etiladi. Biznes hamkordan olingan ma'lumotlarga asoslanib, u bilan o'zaro hamkorlikning risklari tahlil qilinadi va baholanadi.

Tanlovning asoslanganlik so'rovnomasi (Business Justification Questionnaire yoki BJQ) - tekshiruvga tushishi mumkin bo'lgan Biznes hamkor va uchinchi tomonlar va operasialarni qayd etadigan Xarid va ta'minot bo'limi yoki tegishli tarmoq ma'sullari tomonidan to'ldiriladigan so'rovnoma.

Skrining hisoboti - Biznes hamkor va uchinchi tomonlarni o'rganish natijalari yuzasidan tuziladigan hisobot turi.

Korrupsiyaviy xarakterlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

Maxfiy axborot – bu olinishi, ishlanishi, uzatilishi yoki foydalanishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki axborot egasining ichki hujjatlariga muvofiq cheklanadigan har qanday shakldagi axborot;

2. Biznes hamkor va uchinchi tomonlarni tekshirish tamoyillari.

Qonuniylik – biznes hamkor va uchinchi tomonlar qonun doirasida faoliyat yuritishini tasdiqlaydigan hujjatlarga ega bo'lishi lozim.

Shaffoflik – biznes hamkor va uchinchi tomonlar moliyaviy va buxgalteriya hisobotlari aniq va aniqlanadigan bo'lishi kerak.

Reputasiya – biznes hamkor va uchinchi tomonlar qonuniy maqomga hamda vijdonli va halol tijorat operasialarini olib boruvchi tashkilot sifatida nufuzi ega bo'lsagina biznes hamkor va uchinchi tomon sifatida qabul qilinadi.

Korrupsiyaga murossasizlik – biznes hamkor va uchinchi tomonlar korrupsiyaga murossazligini namoyon qilishi va bunday harakatlarni tartibga soluvchi hujjatlarga ega bo'lishi muhim.

Manfaatlar to'qnashuvi – biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan munosabatga kirishishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilmaydi.

3. Komplayens xizmati va uning vazifalari

Komplayens xizmati biznes hamkor va uchinchi tomonlarni ishonchlilik tekshiruvdan o'tkazish jarayonini tashkil etish, o'tkazish va nazorat qilish uchun mas'ul.

Komplayens xizmati korrupsiya, sanksiya va eksport nazorati, manfaatlar to'qnashuvi, jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish

va terrorizmga qarshi kurashishga oid talablar bajarilishi bo'yicha xavflarini aniqlaydi va baholash mexanizmlarini ishlab chiqadi.

Komplayens xizmati xodimlari xavflarni baholash, tekshiruv natijalarini tahlil qilish va yakuniy qaror qabul qilinishi jarayonlarida ishtirok etadi.

Biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan tuzilgan shartnomalar va ularning bajarilishi Komplayens xizmati tomonidan muntazam ravishda nazorat va monitoring qilinadi.

4. Xavflarni baholash tizimi, biznes hamkor va uchinchi tomonlarni kompleks o'rganish jarayoni.

4.1. Xavflarni baholash tizimi

Biznes hamkor va uchinchi tomonlar quyidagi xavf darajalarda baholanadi:

Past xavfli – hamkorning huquqiy va moliyaviy holati barqaror, korrupsiya xavfi past. Bunday hamkorga nisbatan standart monitoring talab etiladi;

O'rta xavfli – hamkorda muayyan xavf omillari mavjud. Unga nisbatan qo'shimcha monitoring va kafolatlar talab etiladi;

Yuqori xavfli – hamkorda korrupsiya va boshqa xavf holatlari mavjud. U bilan hamkorlikni cheklash yoki rad etish tavsiya etiladi, batafsil tahlil va rahbariyatning alohida tasdig'i talab etiladi.

4.2. Biznes hamkor va uchinchi tomonlarni kompleks o'rganish jarayoni (Due Diligence)

4.2.1 Tekshiruv turlari

Soddalashtirilgan tekshiruv (SDD - Simplified Due Diligence) – xavf darajasi past bo'lgan hamkorlar uchun qo'llaniladi.

Kompleks tekshiruv (EDD - Enhanced Due Diligence) – o'rta va yuqori xavfga ega biznes hamkor va uchinchi tomonlarga nisbatan qo'llaniladi.

Tekshiruv jarayonlari ushbu Siyosatga asosan ishlab chiqilgan "Biznes hamkor va uchinchi tomonlarni kompleks tekshirish" Tartibida belgilab o'tilgan bo'lib, ushbu Tartibga asosan tekshiruvlar o'tkaziladi va tekshiruv natijalariga ko'ra Komplayens xizmati tomonidan salbiy yoki ijobiy xulosalar hamda xavflarni minimallashtirish yuzasidan o'z takliflarini beradi.

Komplayens xizmatining xulosasiga asosan Korxonalar raxbariyati biznes hamkor va uchinchi tomonlar bilan hamkorlik qilish yoki uni to'xtatish bo'yicha yakuniy qaror qabul qilinadi.

4.3. Ishonchlilik tekshiruvi (Due Diligence) uchun biznes hamkor va uchinchi tomonlardan talab qilinadigan hujjatlar.

Kompleks tekshiruv anketasi (Due Diligence Questionnaire).

Hamkor davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida guvohnoma.

Soliq hisobotlari va qarzdorlik bo'yicha ma'lumotlar.

Korrupsiyaga qarshi siyosat va ichki nazorat choralari.

Ushbu hujjatlar ro'yxati yakuniy hisoblanmaydi, tekshiruvda aniqlangan holatlar bo'yicha qo'shimcha ma'lumot va hujjatlar talab etilishi mumkin.

4.4. Xavf omillari («Red flags/ Qizil bayroqlar»)

Biznes xamkor va uchinchi tomonlar OFAC, UN, EU, UK yoki boshqa xalqaro sanksiya ro'yxatlariga kiritilgan bo'lsa;

Biznes xamkor va uchinchi tomonlar, ularning ta'sischilari, rahbariyati va boshqaruvchilariga nisbatan korrupsiya, jinoiy daromadlarni legallashtirish, iqtisodiy va boshqa jinoiy faoliyat bo'yicha tergov yoki ma'muriy ish yuritilayotgan bo'lsa;

Biznes hamkor va uchinchi tomonlar haqiqiy benefisiar egalarini (UBO) oshkor qilmasligi;

Biznes hamkor va uchinchi tomonlar qatnashayotgan xarid jarayonlarida shaffoflik, raqobatni cheklashga oid va boshqa qonunbuzilishlar kuzatilsa.

5. Xodimlarni siyosat va tartib talablari bo'yicha o'qitish.

5.1. Siyosat talablari xodimlar ishga yangi qabul qilinganda, shuningdek yilda kamida 1 marta trening o'tkazish yo'li bilan o'qitib boriladi. O'qitish ishlarini tashkil etish Xodimlar bilan ishlash bo'limi va Komplayens xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Siyosat talablari Biznes hamkorlarga ham yilda kamida 1 marta trening o'tkazish yo'li bilan o'qitib boriladi.

Trening tadbirlari Komplayens xizmati bilan kelishiladi va Xodimlar bilan ishlash bo'limi tomonidan yillik o'qitish rejasiga kiritiladi.

6. Siyosat talablari buzilishi to'g'risida xabar qilish, tekshirish va javobgarlik choralari.

6.1. Har qanday shaxs ushbu siyosat bo'yicha maslahat olmoqchi yoki siyosat talablari buzilishi holatlari bo'yicha xabar qilmoqchi bo'lsa, Kompaniyaning +998 (55) 202-02-00 ishonch telefoni, info@kjas.uz, compliance@uzavtosanoat.uz elektron pochta manzili, Uzavtosanoat_compliance_bot telegram messenjeri, "https://uzavtosanoat.uz/compliance/feedback" veb-sayti orqali Komplayens xizmatiga murojaat qilishi mumkin.

Jamiyat siyosat talablari buzilishi haqida xabar qilgan shaxslar ta'qibga uchramasligi va so'roviga asosan shaxsi ochiqlanmasligini kafolatlaydi.

6.2. Xodimlar tomonidan ushbu tartib-taomillarning buzilishi xizmat tekshiruvini o'tkazilishiga sabab bo'ladi va qonunchilikda belgilangan javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin.

7. Yakunlovchi qoidalar.

7.1. Siyosat talablarini amalga oshirish jarayoni alohida ishlab chiqilgan "Tartib" asosida olib boriladi.

Siyosat Jamiyat tomonidan qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurashish, Sanksiyalar va eksport nazorati, Manfaatlarni to'qnashuvi, Jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmga qarshi kurashish to'g'risidagi Siyosatlar bilan birgalikda qo'llaniladi.